

## PUDRAT SHARTNOMASI

104644/1 - sonli

PASTDARGOM tumani.

"29"iyun 2022 yil

"PASTDARGOM tumani obodonlashtirish boshkarmasi" (keyingi o'rinda "buyurtmachi") nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor bir tomondan va **ЧП ШЕРБЕК СЕВИЧ СИФАТЛИ** (keyingi o'rindlarda "pudratchi") nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor Z.Boyqobilov ikkinchi tomondan, byudjet mablag'lari hisobidan Samarqand viloyati Pastdargom tumani Charxin shaxarchasi M. Ulugbek MFYda joylashgan kup kavatl turarjoy i mahalla yulni jori ta'mirlash (keyinchalik-ob'ekt) ishlarni bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risidagi"gi 684-tonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portalı orqali e'lon qilingan va "Pastdargom tumani obodonlashtirish xarid komissiyasining 2022 yil 24 iyundagi bayonnomasiga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

### I. Ta'riflar

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:**ijro hujjatlari** - naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt joriy ta'mirlashga ishchi chizmalar, turkumi, sertifikatlar va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish-montaj ishlarni bajarilishini yuritish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

**qurilish maydoni** - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha buyurtmachi tomonidan pudratchiga ajratilgan er uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

**berkitiladigan ishlarni** - sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruktorsiyalar bilan berkitiladigan ishlarni;

### II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. *Pudratchi* mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektda joriy ta'mirlash ishlarni smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan holda bajarish majburiyatini oladi, *buyurtmachi* esa *pudratchiga* joriy ta'mirlash ishlarni o'z vaqtida qabul kilish va moliyalashtirish manbai bo'lgan mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan shartnoma tuzilayotgan ob'ekt uchun mablag'ta'minlanishi bilan to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.2. *Buyurtmachi* tomonidan moliyalashtirayotgan qurilish narxi tasdiqlangan manzilli dasturda ajratilgan mablag'bo'yicha aniqlanadi.

### III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektda bajariladigan ishlarni qiymati barcha ajratmalarni o'z ichiga olgan holda amaldagi narhlarda shartnomaning umumiy qiymati QQS bilan 585 910 000 (Besh yuz sakkson besh ming tukkiz yuz un ming) so'm, shundan QQS 76 423 043 (**Etmish olti million turt yuz yigirma uch million Krik uch**) so'mni tashkil etib, mazkur mablag'moliya boshqarmasi tomonidan ajratilgach 3 kun muddatda tegishli tartibda moliyalashtirish jadvaliga asosan pudratchining hisob raqamiga o'tkazib berish nazarda tutiladi.

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ob'ektning joriy ta'mirlash ishlarni qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

- ishlarni hajmi *buyurtmachi* tomonidan o'zgartirilganda;

3.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar *buyurtmachi* bilan pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

### IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi shartnomaning II-bo'limga nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:zarur hollarda ayrim ish turlarining bajarilishida smeta hujjatlarida belgilangan mashina-mezanizmlar o'rniga, o'rindosh mashina-mezanizmlardan foydalanimishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriysi xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin;

-smeta hujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari *Pudratchi* tomonidan to'liq va sifatlari qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va xarajatlari smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'nini mazkur ob'ektning ayrim xarajatlari bo'yicha kurilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida *buyurtmachining* ruxsati bilan yo'naltirishi mumkin;

-ob'ektning ijro xujjalarni rasmiylashtirish va *buyurtmachiga* topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikati, ishlatalgan qurilish materiallari va uskunalarining texnik pasportini taqdim etadi;

-shartnoma shartlariga asosan ob'ektni *buyurtmachiga* tasdiqlangan loyiha muvofiq topshiradi;

-*pudratchi* qurilish davomida smeta hujjatlarida hisobga olinmagan ishlarni aniqlasa, bu to'g'rida *buyurtmachiga* xabar berishi shart;

-barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda uning 1-ilovasida belgilangan, ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'zining kuchlari bilan qurilish qoidalari va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish hamda ishni *Buyurtmachiga* mazkur shartnomada shartlariga muvofiq topshiradi;

-mazkur shartnomada bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, transport vositalari, anjomlar, qurilish materiallari, buyumlar vaqtinchalik binolardan bo'shatadi;

-qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi;

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. *Pudratchi* mazkur shartnomada bo'yicha barcha ishlarni sifatli bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun *buyurtmachi* oldida to'liq mulkiy javob beradi.

4.3. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha *pudratchi* joriy ta'mirlash ishlarni bajarilishini qayd etish daftarin yuritadi. Agar *buyurtmachi* ishlarning borishi va sifatidan yoki *pudratchining* qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarda o'z fikrini bayon qiladi.

4.4. *Pudratchi* daftarda *buyurtmachi* tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun *buyurtmachi*:

-ishlar bajarilishi ustidan mazkur shartnomada qayd etilgan *pudratchi* tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, *pudratchidan* tugallangan ishlarni, amaldagi Qonunchilik xujjalariга muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash;

-*pudratchining* barcha murojaatlarni o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

-moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga moliyalashtirish manbai bo'lган mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan shartnomaga tuzilayotgan ob'ekt uchun mablag'ta'minlanishi bilan belgilangan ishlarni qiyamatining **30 foizi miqdorida bo'nak (avans) berish** va har oyda ajratilgan avansni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan holda, bajarilgan ishlarni qiyamatining 100 foizigacha joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

-5 kunlik muddat ichida *pudratchi* tomonidan taqdim qilingan hisob-fakturalarni rasmiylashtirib berishni o'z zimmasiga oladi. Agarda taqdim qilingan hujjatlarda kamchiliklarni aniqlansa ularni ko'rsatgan holda *pudratchiga* qaytarib beradi.

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

6.1. *Pudratchi* mazkur shartnomaga kuchga kirgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Mazkur shartnomada bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarning muddati bajarish jadvali bo'yicha amalga oshiriladi.

## VII. TO'LOV VA HISOB KITOBLARI

7.1. *Buyurtmachi pudratchiga* shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq bo'nak(avans) mablag'i o'tkazadi.

7.2. Bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan "ma'lumotnoma-hisob-faktura"ga asosan moliyalashtiriladi. Bunda joriy moliyalashtirish ajratilgan avans mablag'ining har oyda amalda bajariladigan ishlarni miqdoridan foiz hisobida taqsimlangan holda ushlab qolib, amalga oshiriladi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH

8.1. *Buyurtmachi* ob'ektda o'z vakilini - texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u *buyurtmachining* nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek *Pudratchi* tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnomada shartlariga va ish hujjatlariغا muvofiqligini tekshiradi.

8.2. *Pudratchi* ta'mirlash davrida *buyurtmachining* vakilini (texnik kuzatuvchini) vaqtinchalik yashash joyidan ta'mirlanadigan yo'l qismigacha borib kelishiga transport, ob'ektda ish joyi bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

8.3. *Pudratchi* ob'ektda bajarilgan ishlarning hajmlarini bajarish hujjatlarni, qilingan sarf-xarajatlarni *buyurtmachi* tomonidan mazkur ob'ekt uchun biriktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 25 kunidan ob'ektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni *buyurtmachiga* topshiradi.

8.4. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda shartnomaga amal qilish muddatidan kechikmagan xolda bajarilgan ish hajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

8.5. *Pudratchi* o'zi tomonidan ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarda ko'rsatilgan spesifikasiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lismeni hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lismeni kafolatlaydi.

8.6. *Pudratchi* ishlarni smeta hujjatlari va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasiga va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.7. Yopilib ketadigan ishlarni ularning har bir turi (bosqichi) bo'yicha qabul qilib olish ularning keyingi tur (bosqich) ishlarni boshlangunga qadar bajarilishiga qarab amalga oshiriladi.

Yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish natijalari o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda qabul qilinadigan ishlarning loyiha, normativ-texnik hujjatlar, standartlar talablariga muvofiqlik darajasi aks ettiriladi, shuningdek qabul qilinadigan ishlarga baho va ishlarning keyingi turlarini bajarishga ruxsat beriladi. Dalolatnomaga o'lchovlar qaydnomasi va laboratoriya sinovlari natijalari ilova qilinadi.

8.8. *Pudratchi* *buyurtmachining* qurilish-montaj ishlarning bajarilishini yuritish daftarlariга kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

Agar berkitiladigan ishlarni buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha pudratchi buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

8.9. Agar *buyurtmachi pudratchi* va (yoki) uning yordamchi *Pudratchilar* tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda *Pudratchi* o'z kuchlari va mablag'lari hisobidan ushbu ishlarni ularning sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

## IX. ISHLARNI QO'RIQLASH

9.1. *Pudratchi* ta'mirlash ishlari boshlanishidan tugallangungacha va joriy ta'mirlash tugallangan ob'ekt buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob- uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riganishini ta'minlaydi.

## X. ENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi fors-major holatlari (favqulotda vaziyatlar, favqulotda holat, yuqori turuvchi davlat organlarining qarori va boshqa engib bo'l maydigan kuch, er tebranishi, suv toshqini, ko'chki va hokazo) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

*Pudratchining* mazkur shartnomani bajarish uchun boshqa shartlashuvi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, *Pudratchida* zarur pul mablag'larining bo'l mayganligi fors-major holatlari kirmaydi.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'l maydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda *Pudratchi* va *Buyurtmachi* ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya qilish uchun qanday choralar ko'riliшини muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqidir.

## XI. JORIY TA'MIRLASH TUGALLANGAN OB'EKTNI QABUL QILIB OLİSH

11.1. Joriy ta'mirlash tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'l gan belgilangan tartibga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek joriy ta'mirlash tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olish shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga asosan amalga oshiriladi.

11.2. Ob'ektda joriy ta'mirlash ishlari tugallangandan so'ng:

1). Mahalliy ichki xo'jalik yo'llarini qurish va ta'mirlash ob'ektlarida bajarilayotgan qurilish-montaj ishlaring sifatini texnik kuzatuvi va laboratoriya sinovlari o'kaziladi;

Bunda, O'zbekiston Respublikasida amalda bo'l gan standartlarga muvofiq maxsus lisenziyaga ega, laboratoriya sinovlari qurilish sohasidagi amalda bo'l gan me'yoriy xujjatlar, qurilish normalari va qoidalari bo'yicha faoliyat yuritadigan. Mahalliy ichki xo'jalik yo'llarini qurish va ta'mirlash ob'ektlarida bajarilayotgan qurilish-montaj ishlaring sifatini texnik kuzatuvi va laboratoriya sinovlari o'kazishga ixtisoslashgan, ko'p yillik tajribaga ega korxona (tashkilot, muassasa, jamiyat) larning laboratoriya sinov natijalari bo'yicha xulosalarini olish talab qilinadi.

2). **Bajarilgan ishlar (xizmatlar)ni xaqiqiy ish xajmini aniqlash uchun bank mutaxassislari o'lchov nazorati o'tkaziladi (o'lchov nazorat xarajati pudratchining boshqa xarajatlari hisobidan qoplanadi);**

3). Pudratchi tashkiloti tomonidan tugallangan ob'ektni qabul qilib olish uchun tegishli xujjatlarni rasmiylashtiradi va buyurtmachiga xabarnoma yuboradi;

4). *Ichki yo'llarni joylarda foydalanishga qabul qilish yuzasidan tuzilgan ishchi guruh* tomonidan foydalanishga qabul qilinganidan so'ng, buyurtmachi tomonidan yakuniy xisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

11.3. *Pudratchi* tashkilot ishchi guruhiga quyidagi xujjatlarni taqdim etadi:

- qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda ishtiroy etgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarning turlari va hajmlari hamda mas'ul ijrochilari ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;

- qabul qilishga taqdim etilgan yo'lning texnik loyihasi va ishchi chizmalari to'plami, ijo sxemalari;

- yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish dalolatnomalari;

- yo'l-qurilish materiallari va yo'l to'shamalarining konstruktiv qatlamlaridan kesiklar (tuproq jinslari) sinovlari jurnallari, muvofiqlik sertifikatlari;

- ishlarni bajarish jurnali;

- vakolat doirasidan kelib chiqqan holda qurilish ishlari sifatini nazorat qilish "yo'l qurilish sifat nazorat qilish" davlat inspeksiyasi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilinganligi to'g'risidagi dalolatnomalari.

11.4. *Pudratchi* joriy ta'mirlash tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V-bo'limga muvofiq *buyurtmachiga* *buyurtmachi* tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijo hujjatlarini beradi. *Pudratchi* *buyurtmachiga* ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.5. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt davlat mulkiga aylanadi va o'rnatilgan tartibda yo'lning vakolatli organi balansiga o'tadi.

## XII. Kafolatlar

12.1. *Pudratchi*:

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

smeta hujjatlariga, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik shartlarga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarishni;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikasiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

shartnomada belgilangan kafolat muddati mobaynida ob'ektdan foydalanish jarayonida nuqsonlar va chala qilingan ishlar aniqlanganda, o'z hisobidan bartaraf etishni;

12.2. Ob'ektda bajarilgan ishlarning kafolatlari muddati tomonlar joriy ta'mirlash tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 oy etib belgilanadi.

12.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatlari muddatida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar *pudratchi* tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari *pudratchi* va *buyurtmachining* ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar *pudratchi* bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarga asosan javobgarlikka tortish to'g'risida o'rnatilgan tartibda qonunni muhofaza qiluvchi muassasalarga murojaat qilish huquqiga ega.

### XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

#### 13.1. *Buyurtmachi*:

-shartnoma kuchga kirgandan keyin ishlarning boshlanishi *buyurtmachiga* bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra *pudratchi* tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati *Pudratchining* aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda;

-*Pudratchi* tomonidan shartnoma shartlari shaharsozlik normalari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

#### 13.2. *Pudratchi*:

-ishlarning bajarilishi *pudratchiga* bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra *Buyurtmachi* tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

-*buyurtmachi* tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon ushbu bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.4. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.5. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdag'i "xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-sonli Qonuni va boshqa qonun hujjatlarida, hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Joriy ta'mirlash ishlarini olib borayotgan *pudratchi* tashkilot qonunchilikka va ushbu shartnomaga muvofiq *buyurtmachi* oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:

-sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari;

-ob'ektni hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallanmaganligi;

-*buyurtmachi* bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish-montaj ishlari muddatlarini buzilishi;

- joriy ta'mirlash jarayonida yoki oraliq qabul qilishda *Pudratchi*, mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruktsiya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishni orqaga surish;

shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmagani yoki to'la-qonli bajarmagani.

14.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun *buyurtmachi pudratchiga* kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1% (foizi) miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiyomatining 20% (foizi)dan oshmasligi lozim.

. Penya to'lanishi *Buyurtmachini* shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.3. *Pudratchi* tomonidan ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlar buzilgan bo'lsa, *pudratchi* *buyurtmachiga* muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan

qismining 0,1% (foizi) miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiyomatining 20% (foizi)dan oshmasligi lozim.

Penya to'lash *Pudratchini* ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.4. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, shaharsozlik normalari va qoidalari, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda *buyurtmachi* vakolat doirasidan kelib chiqqan holda "Yo'lqurilishsifatnazoratqilish" davlat inspektsiyasi xulosasi asosida ob'ektini qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek *Pudratchidan* sifati zarur darajada bo'limgan ishlar qiyamatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi qonunlarda belgilangan miqdorida jarima undirish huquqiga ega. *Buyurtmachi* tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun *pudratchi* O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdag'i "xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-sonli Qonunining 26 muddasiga asosan sifatsiz bajarilgan ishlar qiyomatining 20%(foizi) miqdorida jarima to'laydi.

14.5. *Buyurtmachi Pudratchining* bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblarlardan aniqlangan kamchiliklar natijasida *Buyurtmachiga* qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa, *Buyurtmachi* ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

14.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

15.1. Ushbu pudrat shartnomasi amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida e'tiroz tartibiga rioya qilgan holda, ko'rib chiqiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz bildirilgan tomon organidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi.

## XVI. ALOHIDA SHARTLAR

16.1. Mazkur shartnomaga imzolanganidan keyin, shartnomaga tegishli bo'lgan taraflar o'rtasidagi barcha oldindi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. *Pudratchi* qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini *buyurtmachining* yozma ruxsatisiz, yordamchi *pudratchilardan* tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.4. *Buyurtmachi* bilan *pudratchi* o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar, o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.5. Mazkur shartnomaga bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

16.6. Mazkur shartnomaga tomonlar tarafidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

16.7. Shartnomaga kuchga kirgan kundan boshlab tomonlar o'z vazifalarini bajarishga kirishadi, shuningdek mazkur shartnomaga bo'yicha huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

## XVII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

17.1. Taraflar shartnomada tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnomaga bilan bog'liq korruptsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

17.2. Taraflar shartnomadagi korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korruptsianing oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

17.3. Har bir taraf shartnomaga paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnomaga bilan bog'liq munosabatlari yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiyamatliklar berilmaganligini, shartnomaga tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiyamatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (keljakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnomaga doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

17.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali)sodir etilishiga yo'l qo'yaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan lisensiya va ruxsatnomalar olish,soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rlishi, Qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdag'i ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga,

shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariiga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligin yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolati davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

17.5. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizasiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokalar olib borishda, lisenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlarga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga Qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmslik.

17.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

17.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 7.4 - va 7.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'ilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilihini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqla.

#### XVIII. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI

18.1. Shartnoma amal qilish muddati: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi ro'yhatga olingan kundan boshlab 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

- 18.2. Mazkur shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi;
  - 1-ilova – bajarish jadvali,
  - 2-ilova – moliyalashtirish jadvali.

#### XVIII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI

##### Buyurtmachi

"PASTDARGOM tuman obodonlashtirish boshkarmasi

PASTDARGOM tumani Juma shaxri X.Olimjon 15 uy

Sh/x: 401722860182277065200110005

INN: 206852932 OKED 90211

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligining Amaliyot Boshqarmasi

x/r 23 402 000 300 100 001 010

MFO: 00014 INN: 201 122 919



Raxbar

B.Djuraev

##### Pudratchi

##### "III SHERBEK SEVICH SIFATLI"

PASTDARGOM tuman Eski jyma MFY x/r 20208000205010488001

Inn 301 710 888 OKED

MFO 00282

Bank nomi Turon bank ATB

Samarqand filiali

Raxbar



Z.Boyqobilov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:**

“Pudrat shartnomasi”

1. “PASTDARG‘OM tumani Obodonlashtirish boshqarmasi” (keyingi o'rinda "buyurtmachi") nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor bir tomondan va SHERBEK SEVICH SIFATLI xususiy korxonasi (keyingi o'rinlarda "pudratchi") nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor Z.Boyqobilov ikkinchi tomondan, byudjet mablag'lari hisobidan Samarqand viloyati Pastdargom tumani Charxin shaharchasi M. Ulugbek MFYda joylashgan ko'p qavatli turarjoy hovlisi va kirish yo'lni joriy ta'mirlash (keyinchalik-obyekt) ishlarini bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 202- yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risidagi"gi 684-sonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portalini orqali e'lon qilingan va "Pastdargom tumani obodonlashtirish xarid komissiyasining 2022-yil 18-iyundagi bayonnomasiga asosan shartnoma tuzmoqda.

1.2. Shartnomaning umumiyligi QQS bilan 585 910 000 (Besh yuz sakkson besh ming to'qqiz yuz o'n ming) so'm, shundan QQS 127 371 (Bir yuz yigirma yetti ming uch yuz yetmish bir) so'mni tashkil etib, mazkur mablag' moliya boshqarmasi tomonidan ajratilgach 3 kun muddatda tegishli tartibda moliyalashtirish jadvaliga asosan pudratchining hisob raqamiga o'tkazib berish nazarda tutilgan.

Mazkur shartnoma g‘aznachilik bo‘linmalarida majburiy ro‘yxatga olingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilangan.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Pastdarg‘om tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 24-iyun kuni NV34585615-son hujjat raqami bilan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan. Xaro va kamchiliklar bilan kiritilganligi uchun 24 va 27-iyun kunlari rad etilgan.

XULOSA

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “**Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida**” 1998-yil-29 avgustdagi 670-I-son qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrda “**O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-3953-son qarori va amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz boshlig'i**



**E. Davronov**

2022-yil 28-may

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 107485 на приобретение Самарканд вилояти Пастдарғом тумани Чархин шахарчаси М.Улугбек МФЙда жойлашган куп каватли турар жой атрофидаги йулни жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 24.06.2022

Время рассмотрения 23.06.2022 17:08

Конкурсная комиссия Пастдаргом туман Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	DJURAYEV BEKZOD SHAVXITDINOVICH	Бошкарма бошлиги	Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Секретарь комиссии</b>	DJURAYEV AKOBIR ZAYNIDDINOVICH	Котиб	Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	SUYAROV JAMSHID UMAROVICH	Мухандис	Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	FAYZULLAYEV BOBIR BOZORBOY UG'LI	Техник булим бошлиги	Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	O'RINOV SINDOR RAVSHANOVICH	Техник назорат	Ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	XOLMANOV AZAMAT MUROTOVICH	Булим бошлиги	Ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.06.2022 года № лота 107485.

Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	Услуги по устройству дорожных покрытий автомагистралей, автомобильных дорог, улично-дорожной сети, прочих автомобильных и пешеходных дорог и открытых автомобильных стоянок
Подробное описание	Самарканд вилояти Пастдарғом тумани Чархин шахарчаси М.Улугбек МФЙда жойлашган куп каватли турар жой атрофидаги йулни жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	587 910 000.00
Стартовая сумма	587 910 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Энг яхши таклифларни танлаш иштироқчиси ҳақида умумий маълумотлар 1- шакл

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Иш стажи 2 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли қурилишда иш тажрибасига эга бўлиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 2. иш стажига эга 1 кишидан кам бўлмаган дипломга эга инженер-техник ходимларни мавжудлиги. (участка бошликлари ва мастерлар). 3. Ишлаб чиқариш техника бўлимида иш стажига эга

дипломли 1 та мутахассисни мавжудлиги.. 4. Доимий равиша ишловчи 10 тадан кам бўлмаган малакавий ишчилар мавжудлиги. 5. Мехнатни муҳофаза килиш ва техник хавфсизлик ходимлари 1 киши мавжудлиги.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI	19	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	18	Экспертная		
GRANT ME`MOR QURUVCHI SERVIS	19	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	17	Экспертная		

Критерий №2 Энг яхши таклифларни танлашдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси 4-шакл

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифларни танлашдаги ўхшаш ишларни (автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш, капитал ва жорий таъмирлаш) ўз кучи билан бажариш: йилига N (N-Буюртмачи бошланғич нархининг 50% ) сўм ва ундан кўп. (ҳар бир йил 5 балл билан баҳоланади). 2. Энг яхши таклифларни танлаш савдодагига ўхшаш профил бўйича охирги йили ўз кучи билан бажариш.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI	25	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	25	Экспертная		
GRANT ME`MOR QURUVCHI SERVIS	25	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	22	Экспертная		

Критерий №3 IV. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг Машина ва механизмлар руйхати, 5-шакл

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиҳани бажариш учун, қурилиш машина ва механизмларини мавжудлиги, жумладан: 1. Юк кўтариш қуввати 10 тоннадан кам бўлмаган бортли ўзиғдарувчилар - 2 дона; 2. Автогрейдер -1 дона; 5. Ювиш машинаси- 1 дона 6. Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 10 бирлиқдан кам бўлмаган кичик механизация воситаларининг мавжудлиги.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI	20	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	19	Экспертная		
GRANT ME`MOR QURUVCHI SERVIS	20	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим	18	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		этилмоқда				

Критерий №4 . Қурилиш (таъмирлаш) майдонини (объектини) кўздан кечирганлиги ва лойиҳани ўрганганлиги тўғрисида маълумотнома, б-шакл

Тип: Текстовое значение

Описание: Қурилиш (таъмирлаш) майдонини (объектини) кўрганлиги ва ўрганиб чиққанлиги.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI	2	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	2	Экспертная		
GRANT ME'MOR QURUVCHI SERVIS	2	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	2	Экспертная		

Критерий №5 г яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг молиявий аҳволи. 2 ва 3-шакллар

Тип: Текстовое значение

Описание: Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 100 млн. сўм ва ундан кўп.. 2. Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги. 4. Иш ҳақи фонди 100 млн. сўм. 5. Тўловга қодирлилик ёки қоплаш коэффициенти 1,25 ва ундан кўп. 6. Ўз айланма маблағлари билан таъминланганлик коэффициенти 0,2 ва ундан кўп.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI	34	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	33	Экспертная		
GRANT ME'MOR QURUVCHI SERVIS	34	Талаб этилиши лозим бўлган хўжжатлар тақдим этилмоқда	32	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
GRANT ME'MOR QURUVCHI SERVIS	587 910 000.00	587 000 000.00	22.06.2022 15:38:06	99.81
ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI	587 910 000.00	585 910 000.00	22.06.2022 14:46:46	100.00

**Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей**

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>GRANT ME`MOR QURUVCHI SERVIS</b>	Прошел	99.81431	99.81431
<b>ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI</b>	Прошел	100	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 107485 от 24.06.2022 года на приобретение Самаркандин вилояти Пастдарғом тумани Чархин шахарчаси М.Улугбек МФЙда жойлашган күп каватли турар жой атрофидаги йулни жорий таъмирлаш определила победителем:

**ЧП SHERBEK SEVICH SIFATLI**  
301710888

и резервный исполнитель: GRANT ME`MOR QURUVCHI SERVIS (304398958)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Член комиссии</b>	O'RINOV SINDOR RAVSHANOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	SUYAROV JAMSHID UMAROVICH	Согласен	
<b>Председатель комиссии</b>	DJURAYEV BEKZOD SHAVXITDINOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	FAYZULLAYEV BOBIR BOZORBOY UG'LI	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XOLMANOV AZAMAT MUROTOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

O'zbekiston Respublikasi  
Samarqand viloyati  
Pastdarg'om tumani  
hokimligi  
Tadbirkorlik sub'ektlarini  
ro'yxatdan o'tkazish  
INSPEKSIYASI



Узбекистон Республикаси  
Самарқанд вилояти  
Пастдаргом тумани  
хокимлиги  
Тадбиркорлик субъектларини  
рўйхатдан утказиш  
ИНСПЕКЦИЯСИ

## ЮРИДИК ШАХСНИ ДАВЛАТ РУЙХАТИДАН УТКАЗИШ ТУГРИСИДА ГУВОХНОМА

Реестрдаги тартиб раками: 234

№ 233

«5» октябр 2010 йил

Мазкур гувохнома юридик шахс: «**SHERBEK SEVINCH SIFATLI**» хусусий  
корхонаси

га

(узбек тилидаги тулик номи)

(юридик шахс булган дехкон хужаликлари, фермер хужаликлари учун  
ажратилган ер участкаси ва унинг майдони курсатилади)  
берилган.

Ташкилий хукукий шакли:  
Мулкчилик шакли:  
Почта манзили:  
Юридик шахс коди:  
Тармок коди:  
Солик туловчининг  
идентификация раками:  
Кушимча маълумотлар:

TXSH	<u>1010</u>
MSH	<u>114</u>
MХОБТ	<u>1718227848</u>
КТУТ	<u>23366442</u>
ХХТУТ	<u>71280</u>
СТИР	<u>301710888</u>

Изоҳ: *Рӯзи сатҳимизга боссанган 2013 йил 9 сивордаги № 1-хар  
масаласи асоси кхутубди бўйича ўзгартирилди 30 Ноябрине ғойлинига*  
М.У.

Ваколатли орган рахбари:

С.Мирзаев.